

Qadambayeva Ozoda Umid qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: qadamboyevaozoda2@gmail.com

+998907371811

MAJBURIY MEHNAT VA MEHNATGA MA'MURIY TARZDA MAJBURLASHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada majburiy mehnat tushunchasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat turini erkin tanlash borasidagi manfaatlarini ro'yobga chiqarishda xalqaro huquqiy-hujjatlarning ratifikatsiya qilinishi, mehnatga ma'muriy tarzda majburlash natijasida kelib chiqadigan oqibatlar, ushbu huquqbuzarlikni oldini olish, majburiy mehnatga barham berish yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada qonun hujjatlarining takomillashtirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tahlillar davomida xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlaridan maqsadli foydalanilgan, taklif va tizimli havolalar berilgan.

Kalit so'zlar: majburiy mehnat, mehnat erkinligi, bolalar mehnati, huquq va erkinliklar, islohot, xalqaro hujjatlar, ratifikatsiya, huquqbuzarlik, jinoyat, sanksiya, xorij tajribasi

Annotation: In this article, the concept of forced labor, the ratification of international legal documents in the realization of the rights and freedoms of citizens, their interests in freely choosing the type of work, the consequences of administrative coercion to work, the prevention of this offence, and the abolition of forced labor the reforms implemented in our country, the improvement of legislation in this regard are analyzed. Also, during the analysis, legislative documents of foreign countries were purposefully used, suggestions and systematic references were given

Key words: forced labor, freedom of labor, child labor, rights and freedoms, reform, international documents, ratification, offence, crime, sanctions, foreign experience

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие принудительного труда, ратификация международно-правовых документов при реализации прав и свобод граждан, их интересы в свободном выборе вида труда, последствия административного принуждения к труду, предупреждение данного нарушения. Анализируются реформы, проводимые в нашей стране в области отмены принудительного труда, совершенствование законодательства в этой связи. Также в ходе анализа целенаправленно использовались законодательные документы зарубежных стран, даны предложения и систематические ссылки.

Ключевые слова: принудительный труд, свобода труда, детский труд, права и свободы, реформа, международные документы, ратификация, нарушение, преступность, санкции, зарубежный опыт

KIRISH

Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash jinoyati nafaqat O'zbekistonda balki dunyo mamlakatlari uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu jinoyat xalqaro inson huquqlari va erkinliklariga, ularning mehnat turini erkin tanlash va mehnat qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Mamlakatimizda majburiy mehnatni oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan xalqaro huquqiy hujjatlar tan olindi va ijrosi yuzasidan milliy qonunchiligimizga o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini natijasida yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida majburiy mehnat, biror-bir jazo qo'llanishi bilan tahdid qilib, shu jumladan, mehnat intizomini saqlash vositasi sifatida ish bajarishga

majburlash taqiqlanishini belgilashdan iborat fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari qonun hujjatlarida qayd etildi. Avvalo, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi belgilandi.¹

Majburiy mehnat-bu odamlarning o'z irodasiga qarshi, ko'pincha zo'rovonlik tahdidi yoki boshqa majburlash shakllari ostida ishlashga majburlanadigan holat. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi² qayd etildi. Ya'ni, ushbu prinsip mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg'ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi. 1930-yil 28-iyun, Jenevada qabul qilingan "Majburiy mehnat to'g'risida"gi konvensiyaga ko'ra, "zo'raki yoki majburiy mehnat" atamasi ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi. Ya'ni majburiy mehnat biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash taqiqlanadi.³

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga, majburiy mehnatga oid Turkiya, Germaniya, Rossiya, Hindiston, Ozarbayjon davlatlari qonun hujjatlari va milliy qonunchiligimiz qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Majburiy mehnat ming yillarga borib taqaladigan uzoq va tashvishli tarixga ega. U turli jamiyatlar va sivilizatsiyalar tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarda foydalanilgan. Bugungi kunda majburiy mehnat butun dunyoda hamon asosiy muammo bo'lib qolmoqda, millionlab odamlar qishloq xo'jaligi, qurilish va ishlab chiqarish kabi turli sohalarda ekspluatatsiya qilinib, o'z xohishiga qarshi mehnat qilishga majburlanmoqda. Majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Xalqaro Mehnat tashkilotiga a'zo bo'ldi. Ushbu tashkilotning 14 ta, jumladan, 8 ta asosiy konvensiyasi, shuningdek, bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashishga doir konvensiyalari ratifikatsiya qilindi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)–Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining ixtisoslashtirilgan muassasasi bo'lib, ushbu xalqaro tashkilotining asosiy maqsadi davlatlarda ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari surish hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tashkil topganidan so'ng ko'plab davlatlar unga to'la huquqli a'zo bo'lishdi. Shu bilan birga, ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan Konvensiyalarni ham ratifikatsiya qildi va o'z qonunlariga shu xalqaro hujjatlarga asosan normalar kiritdi yoki mavjudlarini o'zgartirishlar bilan qayta qabul qildi. Insonning erkin mehnat qilish, mehnat turini tanlash, mehnatiga yarasha haq olish kabi huquqlarini buzayotgan "majburiy mehnat"ga qarshi butun davlatlar kurasha boshladi. Bular orasida endi mustaqillikka erishgan mamlakatlardan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi ham bor edi. Mamlakatimiz Jinoyat Kodeksi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan O'zbekiston SSR JK ga "majburiy mehnat" to'g'risida norma kiritilmagan, ammo "mehnat haqidagi qonunchilikni buzish" to'g'risida normalar mavjud. Unga ko'ra,

141-modda. Mehnat haqidagi qonunlarni buzish:

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik milliy bazasi, 01.05.2023-y, 03/23/837/0248-son), II bo'lim, IX bob 44-moddasi, <https://lex.uz/docs/6445145>;

² O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi I bo'lim I bob 5-moddasi, <https://lex.uz/docs/-142859>

³ Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, in-academy.uz/index.php/yo, <https://doi.org/10.5281/zenodo.8013594>;

Davlat yoki jamoat korxonasi va muassasalaridagi mansabdor shaxslar tomonidan shaxsiy g'araz bilan mehnatkashlarni qonunsiz ishdan bo'shatish, ishga qayta tiklash haqidagi sud qarorlarini bajarmaslik, shuningdek mehnat haqidagi qonunlarni boshqacha qo'pol ravishda buzish - bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki shu muddatga axloq tuzatish ishi yoxud vazifasidan bo'shatish yoki jamoat izzasi berish bilan jazolanadi.⁴

Bugungi kunda amalda bo'lgan Jinoyat kodeksiga ushbu normalar keyinchalik, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkilotining to'la huquqli a'zosi bo'lgach hamda uning Konvensiyalarini ratifikatsiya qilgandan so'ng, qonunchiligimizga kiritildi. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash yuzasidan javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksida belgilangan. Ilk marotaba ushbu norma Jinoyat kodeksiga O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O'RQ-603-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan kiritilgan.

"148²-modda. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash:

Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Xuddi shunday harakat voyaga yetmagan shaxsga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi."

O'sha qonunning 4-moddasiga binoan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksiga ham quyidagi tarzda qo'shimcha kiritilgan:

"51-modda. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash:

Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda

nazarda tutilgan hollar mustasno, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi".⁵

Keyinchalik esa O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O'RQ-673-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonuniga ko'ra, Jinoyat kodeksi 148²-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasidagi "xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin" degan so'zlar chiqarib tashlandi; Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasi ikkinchi qismi "Xuddi shunday huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa,—bazaviy hisoblash miqdorining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" chiqarib tashlandi.⁶

⁴ O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi (1971-yil 1-yanvargacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). T., O'zbekiston, 1971, 115-bet

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O'RQ-603-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni;

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O'RQ-673-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonuni

Keyingi yillarda mamlakatimizda majburiy mehnatga barham berish, ayniqsa, ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish hollariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq pedagog xodimlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb etish hollari davom etmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga pedagog xodimlarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin xuddi shunday qilmishni takroran sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma kiritildi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida pedagog xodimlarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik, shuningdek ularning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-martdagi O'RQ-826-sonli "Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonuniga ko'ra:

"Jinoyat kodeksi 148²-moddasi quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin: Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi".

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksiga quyidagicha o'zgartirish kiritildi: "51-modda. Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash: Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi."⁷

Yuqoridagi o'zgartirish va qo'shimchalar orqali "majburiy mehnat" ning noqonuniy ekanligi qonun bilan mustahkamlab qo'yildi hamda bugungi kunda bunday turdagi jinoyatning oldini olish maqsadida javobgarlik ancha kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro mehnat standartlariga muvofiq fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida" 2017-yil 4-oktabrdagi qarori bilan bolalar mehnati va majburiy mehnatdan biron-bir shaklda foydalanishning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ushbu yo'nalishda kompleks tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan parlament nazorati instituti joriy etildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar bolalar mehnatiga to'liq barham berish, shuningdek, majburiy mehnatning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik uchun yetarli normativ-huquqiy bazani shakllantirish imkonini berdi, bu jahon hamjamiyati, xususan, XMT, Jahon banki va Yevroparlament tomonidan yuqori baholandi. 1930-yil 28-iyundagi "Majburiy mehnat to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasi majburiy mehnatni taqiqlashga doir eng asosiy xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu konvensiya O'zbekiston Respublikasi uchun 1992-yil 13-iyundan kuchga kirgan. "Zo'raki yoki majburiy mehnat" atamasi ushbu Konvensiya maqsadlari uchun quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

⁷ O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-martdagi O'RQ-826-sonli "Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonuni

- a) majburiy harbiy xizmat to'g'risidagi qonunlar kuchiga ko'ra talab qilinadigan va haqiqiy harbiy tushadigan ishlarga qo'llaniladigan har qanday ishni yoki xizmatni;
- b) to'la o'zini-o'zi boshqaradigan mamlakat fuqarolarining odatdagi fuqarolik burchlarining bir qismini tashkil qiladigan har qanday ish yoki xizmatni;
- c) har qanday shaxsdan sud organining hukmi oqibatida talab qilinadigan har qanday ish va xizmatni, agar mazkur ish va xizmat davlat hokimiyat organlarining kuzatuv va nazorati ostida bajarilsa xamda mazkur shaxs xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar tasarrufiga o'tkazilmasa yoki berilmasa;
- d) favqulodda holatlar sharoitida, ya'ni urush yoki falokat, yoki falokat tahdidi holatlarida, masalan, yong'in, suv toshqini, ochlik, zilzila, kuchli epidemiyalar yoki epizotik kasallik, zararli hayvonlar, hasharotlar yoki parazitlarning hujumi hollarida va umuman jami aholi yoki aholi bir qismining hayoti yoki barqaror hayotiy sharoitini xavf ostiga qo'yadigan yoki qo'yishi mumkin bo'lgan vaziyatlar sharoitida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni;
- e) jamoaning mayda xizmatlarini, ya'ni jamoaning bevosita foydasi uchun shu jamoa a'zolari tomonidan bajariladigan va shu tufayli jamoa a'zolarining odatdagi fuqarolik burchlari deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ishlarni, faqat ushbu jamoa a'zolari yoki uning bevosita vakillari shu ishlarning maqsadga muvofiq bo'yicha maslahatlashish huquqiga ega bo'lishi sharti bilan.⁸

Butun dunyo mamlakatlarida bola huquqlari himoyasiga kuchli e'tibor qaratilgan, xususan bu norma bo'yicha Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya qabul qilingan. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatda bolalarning barcha huquq va erkinliklari belgilangan va ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlik natijasida mazkur tashkilotning "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish va taqiqlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 182-konvensiyasi ratifikatsiya qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2017-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro mehnat standartlariga muvofiq fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori bilan bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanishning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha parlament nazorati instituti joriy etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan majburiy mehnatga qarshi kurashish yanada kuchaytirildi. Har yili 12-iyun – Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu kuni belgilash g'oyasi 1997-yil Amsterdam va Osloda bo'lib o'tgan konferensiyalarda yuzaga kelgan. 2002-yil Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan 12-iyun rasman bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingan.⁹

Xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan majburiy mehnatga oid qonun hujjatlariga nazar tashlayigan bo'lsak, **Rossiya Federatsiyasi** Jinoyat kodeksining 127.2 moddasi. Qul mehnatidan foydalanish:

1. Agar shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ishlarni (xizmatlarni) bajarishni rad eta olmasa, unga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan vakolatlar amalga oshiriladigan shaxsning mehnatidan foydalanish, - besh yilgacha bo'lgan muddatga majburiy mehnat yoki xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

2. Xuddi shunday qilmish:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) voyaga etmaganga nisbatan;

⁸ 1930-yil 28-iyundagi "Majburiy mehnat to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasi 2-10-moddalari

⁹ <https://mehnat.uz/oz/news/12-iyun-butunjahon-bolalar-mehnatiga-qarshi-kurashish-kuni>

v) shaxs o‘z mansab mavqaidan foydalangan holda;

d) shantaj, zo‘ravonlik yoki undan foydalanish bilan tahdid qilish;

e) jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo‘yish, yashirish yoki yo‘q qilish bilan sodir etilgan bo‘lsa, - o‘n besh yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilib yoki unsiz besh yilgacha bo‘lgan muddatga majburiy mehnat yoki uch yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

3. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar , ehtiyotsizlik oqibatida jabrlanuvchining o‘limiga, sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkazilishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan yoxud uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, - sakkiz yildan o‘n besh yilgacha ozodlikni cheklash bilan yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.¹⁰

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksi 232b-moddasi. Majburiy mehnat:

(1) Kimki, boshqa shaxsning shaxsiy yoki moliyaviy ahvolidan yoki chet davlatda bo‘lganligi sababli nochorligidan foydalangan holda, bu shaxsga sabab bo‘lsa yoki 21 yoshga to‘lmagan boshqa shaxsga sabab bo‘lsa.

1. ekspluatatsion mehnat bilan shug‘ullanish yoki shug‘ullanishni davom ettirish (232-modda (1) 2-band),

2. qullikka, majburiy mehnatga, qarz qulligiga yoki tegishli yoki shunga o‘xshash shartlarga kirishish

3. tilanchilik bilan shug‘ullanish yoki shug‘ullanishni davom ettirish, buning natijasida u kishi ekspluatatsiya qilingan hisoblansa, - olti oydan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(2) Kim zo‘rluk bilan, jiddiy zarar etkazish bilan tahdid qilish yoki aldash yo‘li bilan boshqa odamga sabab bo‘lsa - bir yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.¹¹

Turkiya Respublikasi Jinoyat kodeksi 117-moddasi. Mehnat va mehnat erkinligini buzish

(1) Mehnat va mehnat qilish erkinligini kuch ishlatish yoki tahdid qilish yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlar bilan buzgan shaxs jabrlanuvchining shikoyati bo‘yicha - olti oydan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki sud tartibida jarimaga hukm qilinadi.

(2) Shaxs yoki shaxslarning nochorligi, yolg‘izligi va qaramligidan foydalangan holda ularni tekinga yoki ular ko‘rsatayotgan xizmatiga aniq nomutanosib bo‘lgan kam ish haqi evaziga ishga jalb qilgan yoki shaxsni bu ishga bo‘ysundirgan har bir kishi uchun - olti oydan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki mehnat va yashash sharoitlari inson qadr-qimmatiga to‘g‘ri kelmaydigan holatda yoki yuz baravardan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solinadi.

(3) Xuddi shu jazo odamni yuqoridagi bandda ko‘rsatilgan holatlarga solish uchun yetkazib bergan yoki tashigan yoki uni bir joydan boshqa joyga o‘tkazgan har bir kishiga beriladi.

(4) Kuch yoki tahdid ishlatib, ishchini yoki uning ish beruvchisini ish haqini kamaytirish yoki oshirishga yoki ilgari qabul qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnomalarni qabul qilishga majburlagan yoki ishni to‘xtatish, tugatish yoki davom ettirishga sabab bo‘lgan har qanday shaxs - olti oydan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadi.¹²

¹⁰ https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34683

¹¹ https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html;

¹² <https://www.mevzuat.gov.tr/>

Hindiston jinoyat kodeksining 374-moddasida Noqonuniy majburiy mehnat: biror shaxsni uning irodasiga zid ravishda mehnat qilishga qonunga xilof ravishda majbur qilsa, bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima yoki har ikkalasi bilan jazolanadi deb belgilangan.¹³

Ozarbayjan Jinoyat kodeksida ham 144-moddasi (Odam savdosi)da “ekspluatatsiya” tushunchasi mavjud va “Insonni ekspluatatsiya qilish” deganda majburiy mehnat (xizmatlar), jinsiy ekspluatatsiya, qullik, qullikka o‘xshash odatlar va ulardan kelib chiqadigan qullik holati, inson organlari va to‘qimalarini noqonuniy olib qo‘yish, odam ustidan noqonuniy biotibbiyot tadqiqotlarini o‘tkazish, ayolni surrogat sifatida ishlatish, noqonuniy, shu jumladan jinoiy faoliyatga jalb qilish tushuniladi. 144-2-moddasi (Majburiy mehnat)da Tahdid, zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik tahdidi bilan tegishli ishlarni bajarishga (xizmat ko‘rsatishga) majburlash, shuningdek, shaxsning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maxsus holatlardan tashqari erkinligini cheklash to‘rt yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Moddaning 2.5 bandiga ko‘ra ushbu qilmishni aybdor shaxs o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etsa yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.¹⁴

XULOSA

Shu o‘rinda, ko‘pgina mamlakatlarda inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida majburiy mehnatning oldini olish va unga to‘liq barham berishga doir aniq hamda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilgan, majburiy mehnatni taqiqlashga doir qonunlar, hujjatlar qabul qilingan, amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, bunday noqonuniy qilmishning sodir etilishi hali-hamon davom etayotganligini ta’kidlash lozim. Bunga esa bir qancha: korrupsiya, aholi sonining oshishi, ishsizlik, byurokratik tizimning kuchayishi, javobgarlik masalasining yetarli darajada emasligi kabi omillarni keltirishimiz mumkin. **Taklif** sifatida shuni aytishimiz mumkinki, majburiy mehnatni oldini olishimiz uchun aholini yetarli darajada ish bilan ta’minlash, ushbu noqonuniy harakat uchun javobgarlik masalasini kuchaytirish, qo‘llaniladigan sanksiyaning jinoyatning og‘irligiga mutanosib bo‘lishini ta’minlash, jamoatchilikni mehnatga ma’muriy tarzda majburlash huquqbuzarligi sodir etilganda og‘ir oqibatlar (ozodlikdan mahrum qilish, katta miqdorda jarima to‘lash, yetkazilgan zararni qoplash kabi) keltirib chiqarishi mumkinligi haqida ogohlantirish, huquqiy madaniyatini, xabardorlik darajasini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik milliy bazasi, 01.05.2023-y, 03/23/837/0248-son), II bo‘lim, IX bob 44-moddasi, <https://lex.uz/docs/6445145>;
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi I bo‘lim I bob 5-moddasi, <https://lex.uz/docs/-142859>;
3. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konfrensiyasi, in-academy.uz/index.php/yo, <https://doi.org/10.5281/zenodo.8013594>;
4. O‘zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi (1971-yil 1-yanvargacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan). T., O‘zbekiston, 1971, 115-bet
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O‘RQ-603-sonli “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O‘RQ-673-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-martdagi O‘RQ-826-sonli “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonuni

¹³ Majburiy mehnatga jalb etganlik uchun javobgarlik: milliy va xorijiy tajriba | Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/33403>

¹⁴ Majburiy mehnatga jalb etganlik uchun javobgarlik: milliy va xorijiy tajriba | Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/33403>



8. 1930-yil 28-iyundagi “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi Jeneva konvensiyasi 2-10-moddalari
9. <https://mehnat.uz/oz/news/12-iyun-butunjahon-bolalar-mehnatiga-qarshi-kurashish-kuni>
10. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34683
11. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html;
12. <https://www.mevzuat.gov.tr/>
13. Majburiy mehnatga jalb etganlik uchun javobgarlik: milliy va xorijiy tajriba | Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук <https://in.academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/33403>
14. Majburiy mehnatga jalb etganlik uchun javobgarlik: milliy va xorijiy tajriba | Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук <https://in.academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/33403>